




2021- yil yanvar-mart




2021- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi

Samarqand viloyatida kichik tadbirkorlik

Dastlabki ma'lumotlar

- 2021- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining YaHMdagi ulushi **65,2** %ni tashkil etdi.
- Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga **12,3** birlikni tashkil qildi.
- 2021- yilning yanvar-martida **2 412** ta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **5,0** foizga ko'paygan.



2021- yilning yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %da

Savdo
35,9 %

Sanoat
23,0 %

Qishloq, o'rmon va
baliqchilik xo'jaligi
15,3 %

Qurilish
6,0 %

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdoda 865 ta, sanoatda 555 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 370 ta, qurilishda 145 ta, yashash va ovqatlanishda 150 ta, tashish va saqlashda 48 ta tashkil etilgan.

**Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning
asosiy ko'rsatkichlari**

	O'lchov birligi	2020- y.	2021- y.	Farqi (+;-)
Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni	birlikda	27 490	34 980	7 490
Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni	birlikda	2 293	2 412	119
<i>Kichik tadbirkorlikning ulushlari:</i>				
YaHM	%	66,6	65,2	-1,4
Sanoat	%	42,1	39,5	-2,6
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	%	97,0	97,2	0,2
Investitsiya	%	72,1	69,7	-2,4
Qurilish	%	96,2	85,4	10,8
Chakana savdo	%	83,5	77,8	-5,7
Xizmatlar	%	69,8	66,2	-3,6
Yuk tashish	%	80,1	76,6	-3,5
Yuk aylanmasi	%	94,3	85,0	-9,3
Yo'lovchi tashish	%	97,4	98,5	1,1
Yo'lovchi aylanmasi	%	95,1	96,9	1,8
Eksport	%	74,8	49,3	-25,5
Import	%	77,6	41,5	-36,1



2021- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining YaHM va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari, %da

YaHM
65,2%

Savdo
77,8%

Sanoat
39,5%

Qurilish
85,4%

Investitsiya
69,7%

Eksport
49,3%

Xizmatlar
66,2%


Import
41,5%

**Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar
va mikrofirmalar, birlikda**

	2020- yil yanvar-mart	2021- yil yanvar-mart	farqi (+;-)
Samarqand viloyati	2 293	2 412	119
<i>shaharlar:</i>			
Samarqand sh.	536	603	67
Kattaqo'rg'on sh.	80	66	-14
<i>tumanlar:</i>			
Oqdaryo tumani	86	133	47
Bulung'ur tumani	100	93	-7
Jomboy tumani	110	95	-15
Ishtixon tumani	133	129	-4
Kattaqo'rg'on tumani	182	125	-57
Qo'shrabot tumani	49	51	2
Narpay tumani	90	74	-16
Payariq tumani	113	127	14
Pastdarg'om tumani	194	241	47
Paxtachi tumani	62	85	23
Samarqand tumani	209	176	-33
Nurobod tumani	73	112	39
Urgut tumani	175	196	21
Toyloq tumani	101	106	5



2021- yil yanvar-martda yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, %da




2021- yilning yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Samarqand shahri –25,0 %, Pastdarg'om tumani –10,0 %, Samarqand tumani -7,3 %, Urgut tumani –8,1 %, Ishtixon tumani –5,3 %, Kattaqo'rg'on tumani –5,2 %, Payariq tumani –5,3 %, Toyloq tumani –4,4 % hissalariga to'g'ri keldi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan
kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda**

	2020- y. yanvar-mart	2021- y. yanvar-mart	farq. (+;-)
Jami	2 293	2 412	119
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	220	370	150
Sanoat	420	555	135
Qurilish	126	145	19
Savdo	1 050	865	-150
Tashish va saqlash	34	48	14
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	277	150	-127
Axborot va aloqa	36	61	25
Sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	33	38	5
Boshqa faoliyat turlari	132	180	48

Ma'lumot uchun: 2021– yilning yanvar-martida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'p salmog'i, birlikda:




Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori o'ringa ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda

	2020- yil yanvar-mart	2021- yil yanvar-mart	Farqi (+;-)
Samarqand sh.	536	603	67
Pastdarg'om tumani	194	241	47
Samarqand tumani	664	691	27
Urgut tumani	175	196	21
Ishtixon tumani	133	129	-4
Kattaqo'rg'on tumani	182	125	-57
Payariq tumani	113	127	14
Toyloq tumani	101	106	5.0
Jomboy tumani	110	95	-15
Kattaqo'rg'on sh.	80	66	-14

2021- yilning yanvar–martida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'pi Viloyat bo'yicha Samarqand tumanida –691 tani tashkil etdi.



Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda






2021- yil yanvar-mart oylari-da faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subektlarining soni har **1000** aholiga nisbatan 12,3 birlikni tashkil etdi.



Samarqand viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), yanvar-mart holatiga ko'ra*




2021- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga hududlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Samarqand shahrida 19,2 birlik, Payariq tumani 14,3 birlik Kattaqo'rg'on shahrida 13,2 birlik, Bulung'ur va Samarqand tumanlarida 12,9 birlik, Nurobod tumanida, 11,8 birlik, Ishtixon tumanida 12,2 birlik, birlikni tashkil etgan. Narpay tumanida esa ushbu ko'rsatkich eng past bo'lib, 7,3 birlikka to'g'ri keldi.

* Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)




2021– yilning yanvar-martida hududlar bo‘yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)*



* Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarini qo‘shgan holda)



2021- yilning yanvar-martida har 1000 aholiga to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlari soni eng ko'p tashkil etgan shahar va tumanlar, birlikda *



2021- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga tuman va shaharlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Samarqand, Kattaqo'rg'on shaharida 1,1 birlik, Oqdaryo tumanida 0,8 birlik, Samarqand, Pastdarg'om va Nurobod tumanlarida 0,7 birlik, Paxtachi tumanida 0,6 birlik, Ishtixon, Toyloq, Bulung'ur Kattaqo'rg'on, Payariq va Jomboy tumanlarida esa 0,5 birlikni tashkil etdi.



Faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)

Eng yuqori ko'rsatkich

Samarqand shahri
• 19,2 birlik.

O'rtacha ko'rsatkich

Pastdarg'om tumani
10,0 birlik.

Eng past ko'rsatkich


Narpay tumani
• 7,3 birlik.




Kichik tadbirkorlikning YaHMDagi ulushini pasayish dinamikasi, yanvar-mart holatiga ko'ra, %da

2021- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlikning YaHMDagi ulushi 65,2 %ni tashkil qildi. (2020- yilning yanvar-martida 66,6 %).

YaHMning o'tgan yilga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan izohlanadi.



Kichik tadbirkorlikning iqtisodiyot tarmoqlaridagi ulushi (umumiy hajmiga nisbatan % da)



2021- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlikning hududlar kesimida iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridagi ulushi, (%) da

	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar	Investitsiya
Samarqand viloyati	39,5	85,4	66,2	69,7
<i>shaharlar:</i>				
Samarqand sh.	25,1	89,4	47,3	63,4
Kattaqo'rg'on sh.	60,2	65,8	82,9	93,8
<i>tumanlar:</i>				
Oqdaryo tumani	66,0	100,0	84,4	97,5
Bulung'ur tumani	100,0	62,8	74,4	89,8
Jomboy tumani	39,5	100,0	84,1	71,7
Ishtixon tumani	16,1	99,8	83,4	86,7
Kattaqo'rg'on tumani	82,7	100,0	83,8	87,5
Qo'shrabot tumani	100,0	85,3	84,7	47,2
Narpay tumani	19,2	100,0	85,2	75,2
Payariq tumani	31,4	99,7	82,1	40,3
Pastdarg'om tumani	49,5	86,7	78,0	83,7
Paxtachi tumani	43,7	100,0	77,3	55,5
Samarqand tumani	45,9	86,2	86,1	73,3
Nurobod tumani	100,0	99,5	76,6	70,4
Urgut tumani	73,6	99,5	70,3	80,6
Toyloq tumani	30,0	24,8	80,2	76,4

Hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlikning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi eng ko'p:

Sanoatda-

Qo'shrabot (100,0 %),
Nurobod (100,0 %),
Oqdaryo (66,0 %),
Bulung'ur (100,0 %),
Kattaqo'rg'on (82,7 %) va Urgut (73,6 %) tumanlarida.


Qurilishda-

Jomboy (100,0 %),
Ishtixon (99,8 %),
Kattaqo'rg'on (100,0 %),
Qo'shrabot (85,3 %),
Narpay (100,0 %),
Payariq (99,7 %) va Oqdaryo (100 %) tumanlarida

Xizmatlarda-

Oqdaryo (97,5 %),
Bulung'ur (89,8 %),
Toyloq (76,4 %),
Samarqand (73,3 %),
Kattaqo'rg'on sh. (93,8 %) va Narpay (75,2 %) tumanlarida.


2021- yil yanvar-mart oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 49,5 million AQSh dollarini yoki umumiy eksport hajmining 49,3%ini tashkil etdi.



2021- yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Bulung'ur tumanida – 100,0 %, Nurobod tumanida – 100,0 %, Qo'shrabot tumani – 100,0 %, Kattaqo'rg'on tumani – 100,0 %, Oqdaryo tumani – 94,7 %, Payariq tumani – 71,9 %, Urgut tumani – 67,7 %, eng past ko'rsatkich Paxtachi tumani – 14,8 %ni tashkil etdi.




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jami eksportdagi ulushi, %da



2021- yil yanvar-mart oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi 114,5 million AQSh dollarini yoki umumiy importning 41,5 %ini tashkil etdi.



Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, %da




2021- yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jamiga nisbatan eng yuqori ulushi Payariq tumanida –100,0 %, Qo'shrabot tumanida – 100,0 %, Bulung'ur tumanida – 100,0 %, Kattaqo'rg'on sh. – 98,0 %, Kattaqo'rg'on tumanida – 88,5 %, Pastdarg'om tumanida – 82,9 %. Eng past ko'rsatkich Tayloq tumanida – 11,2 %ni tashkil etdi.




2021- yil yanvar-mart oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan 1 782,1 milliard so'm-lik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.



2021- yilning yanvar-martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi (mlrd. so'm)




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Samarqand shahri (495,0 mlrd. so'm), Urgut (296,4 mlrd. so'm), Samarqand (187,2 mlrd. so'm), Jomboy (149,1 mlrd. so'm) va Kattaqo'rg'on (137,9 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Qo'shrabot tumanida (16,4 mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.



2021- yil yanvar-mart oylarida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik biznesning ulushi 39,5 foizni tashkil etdi.



2021- yil yanvar-mart holatiga hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, %da






Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Qo'shrabot, Bulung'ur va Nurobod tumanlari (100%), Kattaqo'rg'on tumani (87,2%), Urgut tumani (73,6%), Oqdaryo tumani (66,0%), Kattaqo'rg'on sh. (60,2%), Samarqand tumani (45,9%), Pastdarg'om tumani (49,5%), Paxtachi tumani (43,7%), Jomboy tumani (39,5%)ni tashkil etdi. Ishtixon tumanida (16,1%) kichik tadbirkorlikning ulushi eng past bo'lib qolmoqda.


2021- yil yanvar-mart oylarida kichik biznes subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 3 111,2 mlrd. so'mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining 77,8 %ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2020- yil yanvar-mart oylariga nisbatan 96,0 foizni tashkil qildi.



2021- yilning yanvar- martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes) da chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Samarqand shahri (791,7 mlrd. so'm), Urgut (374,0 mlrd. so'm), Pastdarg'om (214,0 mlrd. so'm), Kattaqo'rg'on shahri (285,0 mlrd. so'm), Kattaqo'rg'on (168,1 mlrd. so'm) va Payariq (158,0 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.



2021- yil yanvar-mart oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi 1109,3 milliard so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining 85,4 foizini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2020- yil yanvar-mart oylariga nisbatan 111,4 foizni tashkil qildi.




2021- yilning yanvar- martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes) da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Samarqand shahri (404,1 mlrd. so'm), Oqdaryo (90,3 mlrd. so'm), Payariq (95,2 mlrd. so'm), Pastdarg'om (73,6 mlrd. so'm) Urgut (73,5 mlrd. so'm), Samarqand (60,7 mlrd. so'm), Ishtixon (53,8 mlrd. so'm) hamda tumanlarida qayd etildi.


2021- yil yanvar-mart oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan 2 676,1 mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatildi yoki ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining 66,2%ini tashkil qildi 2020- yilning yanvar-martiga nisbatan 103,4 %ni tashkil etdi.



2021- yilning yanvar- martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va o'sish sur'ati





Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p xizmatlar hajmi Samarqand shahri (822,6 mlrd. so'm), Samarqand (227,4 mlrd. so'm), Pastdarg'om (201,7 mlrd. so'm), Urgut (199,6 mlrd. so'm), Jomboy (142,6 mlrd. so'm), Toyloq (141,1 mlrd. so'm) va Kattaqo'rg'on (125,1 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.




2021- yil yanvar-mart oylarida avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik biznesning ulushi 76,6 foizni tashkil etdi. 2020- yil yanvar-mart oylariga nisbatan o'sish sur'ati 78,7 foizni tashkil qildi.

2021- yil yanvar-mart oylarida, avtomobil transportida yuk tashishining umumiy hajmida kichik biznesning ulushi 85,0 foizni tashkil etgan bo'lib, 2020- yil yanvar-mart oylariga nisbatan o'sish sur'ati 92,9 foizni tashkil qildi.




2021- yil yanvar-mart oylarida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik biznesning ulushi 96,9 foizni tashkil etib, bu esa 2020- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 111,2 foizni tashkil qildi.

2021- yil yanvar-mart oylarida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik biznesning ulushi 98,5 foizni tashkil etib, 2020- yil yanvar-mart oylariga nisbatan 118,3 foizni tashkil qilmoqda.






Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2021- yil I chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan taqdim etilgan oxirgi yillik hisobotda mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumi mavjudlari bo'yicha tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi. Unda **1 856** ta respondentlar ishtirok etdi.



2021- yil I chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi*, %da



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 6,0 % (111 ta), sanoatda – 19,7 % (366 ta), qurilishda – 7,2 % (134 ta), savdoda – 39,5 % (733 ta), xizmatlar sohasida – 27,6 %ni (512 ta) tashkil etdi.


* oxirgi yillik statistik hisobotga muvofiq, mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumga ega bo'lgan kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha.



2021- yil I chorak bo'ycha oxirgi yillik hisobotda mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumi bo'lgan kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, %da

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2021- yilning I choragida, o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi savdoda 46,4%ni, xizmatda 30,3%ni, sanoatda 15,1%ni tashkil etdi.

Shuningdek iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi savdoda 37,3 %ni, xizmatlar sohasida 26,3%ni, sanoatda 21,7% ni tashkil etdi.



2021- yilning I choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da


Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

Sanoat

Qurilish


Savdo

Xizmatlar



2021- yilning I choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi savdo sohasida 42,3%ni, xizmatlar sohasida 26,4 %, sanoatda 19,6%ni tashkil etdi.

Shuningdek yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalar eng ko'p ulushi savdo 34,4%ni, xizmatlar sohasida 30,2 %ni, sanoatda 20,8%ni tashkil etdi.



2021- yilning I choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin uch oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, % da

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

Sanoat

Qurilish

Savdo

Xizmatlar

